

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

---

Ro'yxatga olindi:  
№ BD 9  
2025-yil "29 avgust"



**GEOGRAFIYANING ASOSIY MUAMMOLARI  
FANINING O'QUV DASTURI**

**(kunduzgi, kechki)**

<b>Bilim sohasi:</b>	<b>100000 - Ta'lim</b>
<b>Ta'lim sohasi:</b>	<b>110000 – Ta'lim</b>
<b>Ta'lim yo'nalishi:</b>	<b>60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi</b>

Fan/mavzu kodi GAMT404		O'quv yili 2025-2026	Semestr 8	Kreditlar 4	
Fan/mavzu turi Tanlov		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4/4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Geografiyaning asosiy muammolari		60 (30/30)	60	120
2.	<b>I. Fanning mazmuni</b> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning zamonaviy tuzilishi, tadqiqot ob'ekti va predmeti, ichki rivojlanish qonuniyatlari, o'rta va oliy maktabda o'qitilishi muammolari, amaliy jihatlari o'rgatishdir. Ushbu bo'limda olingan nazariy bilimlar natijasida talabalar Geografiyaning asosiy muammolari fanining Tabiiy geografiyaning asosiy muammolari o'quv kursi ob'ekti va predmeti, maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixini dastlab bilib oladilar. So'ngra o'quv fanining boshqa tabiiy fanlar bilan bog'liqligi, tabiiy geografik izlanishlarning tavsifi, tabiiy geografik komplekslar va ularning umumiy xususiyatlari, tabiiy geografik rayonlashtirish regional tabiiy geografiyaning metodologik masalalari, genetik birlilik, komplekslilik, hududiy umumiylik va nisbatan bir xillik printsiplari, tabiiy geografiyaning amaliy jihatlari va ularning umumiy xususiyatlarini o'rganadilar.</p> <p><b>II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>Geografiyaning asosiy muammolari maqsad va vazifalari.</b></p> <p>Geografiyaning asosiy muammolari, maqsad va vazifalari" mavzusi geografiya fanining nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini o'rgatishga qaratilgan bo'lib, bu mavzuda Geografiyaning ta'rifi va predmeti nima bilan shug'ullanadi quyidagi asosiy yo'nalishlar va masalalar o'rganiladi.</p> <p><b>Tabiiy geografiyadagi asosiy g'oya va tushunchalarning shakllanish va rivojlanish tarixi.</b></p> <p>Tabiiy geografiya qadimgi davrlarda tabiiy hodisalarni kuzatish va xaritalash asosida shakllandi.. XX asrda geosistema va tabiiy geografik kompleks tushunchalari rivojlandi.. Zamonaviy geografiya ekologik muammolar va barqaror rivojlanish g'oyalariga asoslanadi.</p> <p><b>Tabiiy geografik kontseptsiyalar va geografik bilimlar tarixini davrlashtirish muammolari.</b></p> <p>Tabiiy geografik kontseptsiyalar rivoji qadimgi davr, o'rta asr, Uyg'onish va zamonaviy bosqichlarga bo'linadi. Davrlashtirishda olimlarning yondashuvi, ilmiy kashfiyotlar va texnologik taraqqiyot inobatga olinadi. Gumboldt, Ritter, Berg kabi olimlar asosiy ilmiy maktablarni yaratgan. Zamonaviy davrda GIS, ekologik yondashuv va geosistemalar nazariyasi yetakchi o'rinda turadi.</p> <p><b>Hozirgi zamon tabiiy geografiyasining ob'ekti predmeti va vazifalari.</b></p> <p>Hozirgi zamon tabiiy geografiyasining ob'ekti — Yer yuzasidagi tabiiy geografik komplekslardir. Predmeti — tabiat komponentlari va ularning o'zaro aloqasini o'rganishdir. Vazifalari — resurslarni baholash, ekologik tahlil va hududiy rivojlanishni rejalashtirishdir. Muammolari — iqlim o'zgarishi, ekologik inqiroz va antropogen ta'sir kuchayishidir.</p> <p><b>Tabiiy geografik fanlarni tizimlash muammolari.</b></p> <p>Tabiiy geografik fanlarni tizimlashda fanlararo chegaralarni aniq belgilash dolzarb muammodir. Fizik geografiya yo'nalishlari (geomorfologiya, gidrologiya, iqlimshunoslik) bir-</p>				

biriga chambarchas bog'liq. Ularni yagona tizimda birlashtirishda geosistemaviy yondashuv asosiy rol o'ynaydi.

#### **Tabiiy geografik tadqiqotlarning zamonaviy metodologiyasi va metodlar tizimi.**

Zamonaviy tabiiy geografik tadqiqotlar geosistemaviy va kompleks yondashuvga asoslanadi. Kuzatuv, kartografik, statistik va model asosidagi metodlar keng qo'llaniladi. GIS texnologiyalari va masofaviy zondlash usullari muhim ilmiy vositalardir. Metodlar tanlovi tadqiqot maqsadi va hududiy xususiyatlarga bog'liq holda belgilanadi.

#### **Tabiiy geografik rayonlashtirish muammolari.**

Tabiiy geografik rayonlashtirishda hududlarni ilmiy asosda ajratish dolzarb masaladir. Rayonlashtirish mezonlarining turlicha bo'lishi yagona tizim yaratishga to'sqinlik qiladi. Landshaft, iqlim, tuproq va suv resurslari asosiy belgilovchi omillardir. Zamonaviy yondashuvlar kompleks tahlil va GIS texnologiyalarini talab qiladi.

#### **Qadimgi va orta asrlar geografiyasi**

Qadimgi geografiya asosan Yerning shakli va xaritalarini tasvirlashga qaratilgan. Yunon-Rim olimlari (Strabon, Ptolemey) geografik bilimlarni rivojlantirib, xaritalar tuzgan. O'rta asrlarda arab olimlari geografiyani rivojlantirgan, yangi hududlar haqida bilimlar to'plagan. Islom olimlari (Al-Xorazmiy, Al-Idrisiy) geografining ilmiy asoslarini mustahkamlashgan.

#### **Buyuk geografik kashfiyotlar davri.**

Buyuk geografik kashfiyotlar davri XV-XVI asrlarda boshlanib, yangi yerlar kashf etildi. Kristofor Kolumbning Amerika qit'asini kashf etishi va Vasco da Gamaning Hindistonga yo'l topishi muhim voqealar hisoblanadi. Magellan sayohati Yerning doiraviyligini isbotladi. Kashfiyotlar natijasida savdo yo'llari ochilib, jahondagi iqtisodiy va madaniy aloqalar kuchaydi.

#### **Geografik qobiqning chegaralari va tarkibiy tuzilishi.**

Geografik qobiq Yerning tashqi qatlamidir, u biosfera, atmosferaning pastki qismi, geosfera va gidrosferani o'z ichiga oladi. Geografik qobiqning chegaralari yer yuzasining tabiiy komponentlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar bilan belgilanadi. Tarkibiy tuzilishi fizika-geografik hududlar va landshaftlar orqali ifodalanadi. Geografik qobiq o'zgaruvchan bo'lib, iqlim, geologik jarayonlar va inson faoliyati ta'sirida rivojlanadi.

#### **Geografik qobiqning oziga xos bolgan xususiyatlari**

Geografik qobiq Yer yuzasida tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning birlashgan hududidir. U dinamik xususiyatga ega bo'lib, vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi. Geografik qobiqning asosiy xususiyatlari — zonallik, komplekslik va o'zaro bog'liqlikdir. U yerning barcha tabiiy resurslarini o'z ichiga olib, inson faoliyatiga ta'sir qiladi.

#### **Tabiiy geografik komplekslar va ularning umumiy xususiyatlari**

Tabiiy geografik komplekslar — Yer yuzidagi tabiiy komponentlar (tuproq, suv, iqlim, o'simliklar va hayvonot)ning o'zaro bog'langan tizimidir. Ularning umumiy xususiyatlari — zonallik, komplekslik va o'zaro ta'sirlar mavjudligi. Komplekslar har bir hududda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, turli landshaftlarni tashkil etadi. Tabiiy geografik komplekslar yerning tabiiy resurslarini boshqarish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

#### **Tabiiy-geografik rayonlashtirishning asosiy usullari.**

Tabiiy-geografik rayonlashtirishda asosiy usullar — tabiiy komponentlar va ularning o'zaro ta'sirini tahlil qilishdir. Eng ko'p qo'llaniladigan usullar: zonallik, komplekslik va landshaft usullari. Geografik hududlarni ajratishda iqlim, relief, tuproq va o'simliklar kabi tabiiy omillar hisobga olinadi.

#### **Tabiiy-geografik rayonlashtirish taksonomik birliklar sistemasi.**

Tabiiy-geografik rayonlashtirish taksonomik birliklari tabiiy komplekslar va hududlarni tizimlashtirishga qaratilgan. Ular iqlim, relief, tuproq va o'simliklar asosida ajratiladi. Rayonlashtirishda umumiy yondashuvlar va har bir birlikning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Tizimda har bir rayon o'zining tabiiy resurslari va ekologik sharoitlariga ko'ra belgilangan.

#### **O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirilishi masalalari.**

O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografik rayonlashtirilishida iqlim, relief, tuproq va o'simliklar kabi omillar asosiy rol o'ynaydi. Rayonlashtirishda mintaqaning o'ziga xos tabiiy sharoitlari va hududiy farqlar e'tiborga olinadi. O'zbekistonning tabiiy komplekslari, jumladan, cho'l, tog'li va tekislik rayonlari ajratiladi. Zamonaviy yondashuvlar GIS va masofaviy zondlash texnologiyalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

#### **III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Turli tabiiy geografik rayonlashtirish sxemalarini tahlil qilish asosida tabiiy geografik komplekslarning katta-kichikligini aniqlash.
2. Geografik qobiqning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini tavsiflash.
3. Tabiiy geografik komplekslarning modellarini tuzish.
4. Geografik qobiqdagi modda almashinishlar sxemalarini tuzish..
5. Tabiiy geografik rayonlashtirishning taksonomik birliklar jadvalini tuzish
6. Xususiy rayonlashtirish ma'lumotlarini tahlil qilib tabiiy geografik komplekslarni aniqlash.
7. Landshaft kartalarini tahlil qilish asosida tabiiy geografik rayonlar va okruglarni ajratish.
8. O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish tajribalarini tahlil qilish.
9. Landshaft va ekosistema modellarini qiyoslash asosida o'xshashlik va farqlarini aniqlash.
10. Tabiiy geografik baholash maqsadida iqlim, relief va turoq ko'rsatkichlarini tavsiflash.
11. Umumiy va amaliy maqsadlar uchun rayonlashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish.
12. Tanlagan mavzular bo'yicha aloxida referat yozish va uni ma'ruza qilish
13. Oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan fanlar turkumi, ularning jahon andozalariga moslashtirish muammolari haqida ma'lumot to'plash.
14. Tabiatdan foydalanish va tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish rejalarini ishlab chiqish
15. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha I.Tyunen, A.Veber, V.Kristaller, A.Lyoshlarning ilmiy g'oyalari asosida diagrammalar tayyorlash

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

**Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:**

- Mavzuni og'zaki bayon qilish;
- 4 javobli test savoli tayyorlash;
- yozma savol tayyorlash;
- Taqdimot tayyorlash;
- Referat tayyorlash;
- rasmlari topshiriq tuzish;
- Ma'lumotlarni jadval ko'rinishida ifodalash;
- Yozuvsiz xarita bilan ishlash;
- Videorolik tayyorlash;
- Ko'rgazmali qurol tayyorlash;
- Bir soatlik dars ishanma tayyorlash;
- Krassvord tuzish;

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Xorijiy adabiyotlardan ma'lumotlarni to'plash, tarjima qilish va tahlil qilish;</li> <li>- Ha, yo'q javobli test tuzish;</li> <li>- Audio dars tayyorlash;</li> <li>- Internet ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish;</li> </ul> <p>Adabiyotlar ro'yxatini tuzish;</p> <p><b>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Geografiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari</li> <li>2. Geografiya fanining zamonaviy yo'nalishlari va tarmoqlari</li> <li>3. Global ekologik muammolar va ularning geografik jihatlar</li> <li>4. Iqlim o'zgarishi va uning hududiy ta'siri</li> <li>5. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammolari</li> <li>6. Suv resurslari tanqisligi va geosiyosiy xavflar</li> <li>7. Aholining nomutanosib joylashuvi va urbanizatsiya muammolari</li> <li>8. Tabiiy geografik komplekslarning buzilishi va inson ta'siri</li> <li>9. Geografik axborot tizimlarining (GIS) roli va ahamiyati</li> <li>10. Tabiiy ofatlar va ularning hududiy taqsimoti</li> <li>11. Transchegaraviy ekologik muammolar (Aral, Amudaryo, Sirdaryo misolida)</li> <li>12. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi va geografiyaning roli</li> <li>13. Yer resurslari degradatsiyasi va cho'llanish muammosi</li> <li>14. Bioxilma-xillikning kamayishi va tabiiy geografik oqibatlar</li> <li>15. Geografik kashfiyotlarning tarixiy va zamonaviy tahlili</li> <li>16. Atrof-muhit monitoringi va geografik tadqiqotlar metodlari</li> <li>17. Geosiyosiy nizolar va ularning geografik asoslari</li> <li>18. Tabiiy zonalarining o'zgarishi: sabablari va oqibatlari</li> <li>19. O'zbekistonning ekologik muammolari va geografik tadqiqotlar</li> <li>20. Geografiya fanining rivojida sun'iy intellekt va texnologiyalar roli</li> </ol>
3.	<p><b>V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>Talaba bilish kerak:</b></p> <p><b>O'zlashtirilgan bilimlar natijasida</b> talabalar o'zlarining ishlab chiqarish faoliyatida, jumladan maktab, kollej va litseylarda o'quvchilarga dars berish jarayonida, turli ilmiy tadqiqot ishlarida dala-kuzatuv hamda o'lchash ishlarini tashkil etishlarida, ulardan xo'jalikning turli sohalarida samarali foydalanishda ushbu fan bo'yicha, ya'ni tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning o'zaro aloqadorligi va rivojlanishi muammolari, ilmiy-amaliy ahamiyati haqida olgan nazariy va amaliy bilimlariga tayanadilar.</p>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>ma'ruzalar; interfaol, keys stadi, munozara</i></li> <li>• <i>interfaol keys-stadilar;</i></li> <li>• <i>diologik yondoshuv</i></li> <li>• <i>SWOT tahlili</i></li> <li>• <i>Wenn diagrammasi</i></li> <li>• <i>Bliz so'rov</i></li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish.</p>
6.	<p><b>VIII. Asosiy adabiyotlar</b></p> <p>1. Назаров И.Қ. География фанининг асосий муаммолари. Т.: Мухаррир. 2013.</p>

	<p>2. Зокиров Ш.С. Кичик ҳудудлар табиий географияси. Т.: Университет. 1999. А.А.</p> <p>3. Гвоздецкий Н.А. Основные проблемы физической географии. М.: Высшая школа. 1979</p> <p style="text-align: center;"><b>IX. Qo‘shimcha adabiyotlar</b></p> <p>1. Sabitova N.I., Saidkarimova Z.S. Dunyo tabiiy geografiyasi va topografiya asoslari. Uslubiy qo‘llanma. O‘zMU. 2007y</p> <p>2. Vaxobov X. Geografiya. O‘quv qo‘llanma. T.: Uzingomsentr. 2002</p> <p>3. Берлянт А.М. Карографический метод исследования. 2-е издание-М.: МГУ, 1998</p> <p>4. Геоинформатика: талковые словарь основных терминов (под. Ред.А.М.Берлянта). М.: МГУ, 2000</p> <p>5. Muborakov H. Geodeziya. T.: Cho‘lpon, 20137.</p> <p style="text-align: center;"><b>O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI</b></p> <p>1. O‘zbekiston Ryespublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)</p> <p>2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrda "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida" gi PF - 6108 - son farmoni.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari:</b></p> <p>1. <a href="http://www.edu.uz">http://www.edu.uz</a>—O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.</p> <p>2. <a href="http://www.uzedu.uz">http://www.uzedu.uz</a> – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.</p> <p>3. <a href="http://www.gov.uz">http://www.gov.uz</a>— O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali.</p> <p>4. <a href="http://www.pedagog.uz">www.pedagog.uz</a></p> <p>5. <a href="http://www.apkpro.ru/content/view">www.apkpro.ru/content/view</a></p> <p>6. <a href="http://www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten">www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten</a></p> <p>7. <a href="http://www.relarn.ru/conf/conf2007">www.relarn.ru/conf/conf2007</a></p> <p>8. <a href="http://vilenin.narod.ru/Mm/Books/">http://vilenin.narod.ru/Mm/Books/</a></p> <p>9. <a href="http://www.allmath.ru/">http://www.allmath.ru/</a></p> <p>10. <a href="http://www.ziyonet.uz/">http://www.ziyonet.uz/</a></p> <p>11. <a href="http://window.edu.ru/window/www.astronet.ru">http://window.edu.ru/window/www.astronet.ru</a></p>
7.	Fan dasturi Samarqand davlat pedagogika instituti o‘quv-uslubiy kengashining 2025 yil “___” _____ -son bayonnomasi bilan ma’qullangan
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas’ullar va dastur mualliflari:</b></p> <p>S.Sh.Xujaqulov – Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasida assistenti.</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>F.A.Xamroyeva -Samarqand davlat pedagogika instituting Geografiya kafedrasida dotsenti (ichki)</p> <p>A.X.Ravshanov - Sharof Rashidov nomidagi SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasida dotsenti (tashqi)</p>

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingida 98-o‘rinni egallagan Moskva davlat universitetning Geografiya fakulteti, Geografiya yo‘nalishi (“Географическое районирование”) dasturlari tahlil qilinib, mavzular fan dasturining mavzulariga singdirildi.

[https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog\\_distc/programs\\_3xx/bak\\_G/b\\_G\\_gp\\_Geograficheskoe\\_rajonirovanie\\_2023.pdf](https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_G/b_G_gp_Geograficheskoe_rajonirovanie_2023.pdf)

Fan dastur Tabiiy fanlar fakultetning 2025-yil 23-apreldagi 2- sonli farmoyish bilan tuzilgan ishchi guruh tomonidan maqullangan.

**Tuzuvchi:**

S.Sh.Xujaqulov

**Kafedra mudiri:**

A.A.Xamroyeva

**Fakultet dekani:**

N.Mirzayev

**O'quv-ishlar bo'yicha prorektor:**

H.Musulmonov





**Samarqand davlat pedagogika instituti "Geografiya" kafedrası assistenti  
S.Sh.Xujaqulov tomonidan tayyorlangan "Geografiyaning asosiy  
muammolari" o'quv fan dasturiga**

**TAQRIZ**

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy islohotlar ta'lim tizimida ham tub yangilanishlarni talab etmoqda. Jumladan, geografiya fanining zamonaviy yo'nalishlarini talabalarga yetkazishda tizimli yondashuv, ilmiy asoslangan metodlar hamda dolzarb mavzularni qamrab olish katta ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan "Geografiyaning asosiy muammolari" fani bo'yicha tuzilgan o'quv dasturi o'z vaqtida yaratilgan ilmiy-metodik manba hisoblanadi.

Mazkur dasturda geografiya fanining nazariy asoslari, global va mintaqaviy muammolar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhit muhofazasi, aholi va iqtisodiyotning hududiy rivojlanishi kabi dolzarb mavzular keng qamrovda yoritilgan. Fanning nazariy va amaliy jihatlarini o'zaro uyg'un holda talabalarga yetkazilishi ko'zda tutilgan bo'lib, ularning ilmiy dunyoqarashi, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Dasturda berilgan topshiriqlar va metodik tavsiyalar talabalarda mustaqil izlanish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, zamonaviy ilmiy adabiyotlar va o'quv-axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari ham nazarda tutilgan.

Fan dasturi Malaka talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv rejalariga to'liq mos keladi. Ushbu namunaviy fan dasturi 60530200 – Geografiya yo'nalishi bakalavr talabalari uchun mo'ljallangan va fan dasturini nashr etishga loyiq deb hisoblayman.

Samarqand davlat pedagogika instituti  
"Geografiya" kafedrası mudiri:



dots. F.A.Xamroyeva



**Samarqand davlat pedagogika instituti "Geografiya" kafedrası assistenti  
S.Sh.Xujaqulov tomonidan tayyorlangan "Geografiyaning asosiy  
muammolari" o'quv fan dasturiga**

**TAQRIZ**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida ta'lim jarayoniga ham zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, geografiya fani doirasida dolzarb muammolarni o'rganish, global va mahalliy darajadagi jarayonlarni chuqur tahlil etish kelajak mutaxassislarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Shu ma'noda "Geografiyaning asosiy muammolari" fanining o'quv dasturi bugungi talab va ehtiyojlarga to'la javob beradi.

Fan dasturida tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik muammolar, urbanizatsiya jarayonlari, aholi geografiyasi hamda iqtisodiy faoliyatning hududiy jihatlari keng yoritilgan. Ushbu masalalarning nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinishi talabalarda tahliliy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Metodik tavsiyalar, topshiriqlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi talabalarda mustaqil izlanish va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Dasturda fan bo'yicha foydalanish mumkin bo'lgan o'quv va ilmiy adabiyotlar keltirilgani ham o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Mazkur fan dasturi malaka talablari asosida tuzilgan bo'lib, o'quv rejalariga mos keladi. Ushbu o'quv dasturi 60530200 – Geografiya yo'nalishi bakalavrlari uchun mo'ljallangan va uni nashr etishga tavsiya qilaman.

**Sharof Rashidov nomidagi SamDU**

**Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrası dotsenti:**

**A.X.Ravshanov**

